

## ESKI TURKIY TILDA “VAQT” KONSEPTINI SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

Mamarajabova Iroda Fayzullayevna,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent

davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti.

E-mail: mamarajabovairoda088@gmail.com

### Annotatsiya

Ushbu maqolada, eski turkiy til davri matnlarida vaqtga oid bo‘lgan tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning semantik taraqqiyotini va ularning struktur-grammatik xususiyatlarini tahlil qiladi. Jumladan, eski turkiy til davri matnlarida “vaqt” tushunchasini ifodalovchi so‘zlar va ularning semantik rivojlanishini tahlil qilish uchun tahliliy-mantiqiy xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbek tilshunosligi, “vaqt” konsepti, Eski turkiy til, maqollar, “Boburnoma”, manba.

Ma’lum shakl va mazmundagi axborotni uzatish vositasi bo‘lgan matn mazmunida aspektual-zamon ko‘rsatkichlarining mavjud bo‘lishi muqarrar talabdir. Zero, bunday ko‘rsatkichlarga ega bo‘lmagan axborot hech qanday kommunikativ ahamiyatga ega emas. Biri ikkinchisini bevosita taqozo etadigan aspektual-zamon konseptlarining bir-biridan farqi shundaki, makon – uch o‘lchovli hodisa bo‘lsa, zamonning o‘lchovi yagona, u o‘tgan davrni orqada qoldirib, kelajak sari harakat qiladi.

Makon bir paytda mavjud bo‘lgan obyektlarning joylashish tartibi, zamon esa birin-ketin sodir bo‘layotgan hodisalar ketma-ketligidir. Har qanday mavzu va davrga oid badiiy matnning til xususiyatlari tekshirilayotganida, unda bayon etilayotgan voqelikka makon va zamon nuqtayi nazaridan yondashish kerak bo‘ladi, chunki har qanday asar davr va hudud bilan bog‘liq holda yaratiladi. Matnning zamon, ya’ni temporallik strukturasi uning mazmun-mundarijasining uzviy bir qismi bo‘lib, u mazmun yaratish va uni tushunish faoliyatlari uchun g‘oyatda muhimdir.

Vaqtning bir qator turlari ham mavjud bo‘lib, ular o‘z navbatida ma’lum bir paradigma qanday tuzilganligi va murakkab vaziyatlar bilan o‘zaro ta’sirini ta’kidlaydi. Vaqt biz dunyoni idrok qiladigan asosiy kategoriyadir. “Vaqt” tushunchasini o‘rganish, eng avvalo, zamon xususiyatlarini muhokama qilishdan iborat. Shu munosabat bilan, falsafa, psixologiya va kognitiv lingvistika hamma vaqtni odamlarning vaqt tajribasi orqali obyektiv dunyo bilan bog‘laydi, vaqt fazoviy harakatchanlik va hodisa xususiyatlariga egadir. Fazoviy vaqt xususiyatlari kognitiv tilshunoslikning dolzarb masalalaridan bo‘lib, olib borilgan tadqiqotlarda til va idrok, ya’ni kognitiv kategoriyalar va til kategoriyalari o‘rtasidagi munosabatlarga oid yondashuvlar atroflicha tahlil qilingan.

Turkiy xalqlar ongida “vaqt” konseptosferasining shakllanishida turmush tarzi, madaniy taraqqiyot omillari muhim o‘rin tutgan. Turkiy tilning eng rangin tillaridan biri bo‘lgan o‘zbek

tilida ham bevosita temporal semantikaning salmoqli leksikasi mavjud. Bunday birliklar qadim ko'kturk bitiklaridan boshlab, "Devoni lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiy asarlari, "Boburnoma" va boshqa bir qancha manbalarda o'z aksini topgan. Tilning taraqqiyot darajasi faqatgina undagi so'zlarning miqdoriga qarabgina belgilanmaydi, balki turli ma'no va stilistik ottenkalarni ifodalovchi so'zlarga, o'zaro aloqada fikrning turli-tuman va nozik ottenkalarini ifodalovchi vositalarga qanchalik boyligi bilan ham belgilanadi.

Tilning taraqqiyot darajasi faqatgina undagi so'zlarning miqdoriga qarabgina belgilanmaydi, balki turli ma'no va stilistik ottenkalarni ifodalovchi so'zlarga, o'zaro aloqada fikrning turli-tuman va nozik ottenkalarini ifodalovchi vositalarga qanchalik boyligi bilan ham belgilanadi. O'zbek tilshunosligida vaqt ma'nosi payt ravishlari, vaqt ma'noli otlar, sifatlar, olmoshlar, fe'llar, yuklamalar kabi morfologik, payt hollari, vaqt ifodalovchi konstruksiyalar singari sintaktik sathlarda o'rganilgan. Leksik birliklarning temporal ma'nosi haqida xususiy va u yoki bu munosabat bilan bildirilgan fikrlar uchraydi. Vaqt sememasi va semalarining tarkibi, ularning sistema hosil qiluvchi imkoniyatlari, vaqt semantikasi makro va mikro sistemalar, bularning tuzilish xususiyatlari, vaqt ifodalovchi birliklarining lug'aviy sistemada tutgan o'rni, ko'lami kabi masalalar o'z yechimlariga ega emas.

Kishilik jamiyati paydo bo'lish jarayoni uzoq o'tmishga borib taqalganidek, kundalik ehtiyoj tufayli yuzaga kelgan vaqt va o'lchov birliklarining paydo bo'lish tarixi ham uzoq davrga borib taqaladi. Tarixiy, badiiy va ilmiy manbalarda ifodalangan mazkur leksemalarga oid terminlarni to'plashning bugungi kunda ahamiyati katta. Chunki ular atamashunosligimizda muammo bo'lib turgan masalalarni hal etishda foydali manba bo'la oladi.

Har qanday leksik qatlamni, leksikaning xilma-xil mikrogruhi va kichik guruhlari tarkibidagi leksemalarning leksik-semantik aloqalarini ko'rsatib berish o'zbek tili leksikasi kabi eski turkiy tilda ham yaxlit bir sistema sifatida namoyon etgan.

Vaqt va o'lchov semantikasi o'zining leksik, grammatik, fonetik ifodalanishlariga ega.

Mavjud tasniflarga asoslangan holda "vaqt" konseptli lingvistik birliklarni struktur-semantik jihatdan quyidagi guruhlariga ajratdik:

1. "Vaqt" konseptli sodda (tub va yasama) leksemalar.
2. "Vaqt" konseptli qo'shma leksemalar.
3. "Vaqt" konseptli frazemalar.
4. "Vaqt" konseptli tasviriy ifodalar.
5. "Vaqt" konseptli maqollar.
6. "Vaqt" konseptli aforizmlar.
7. "Vaqt" konseptli turkiy va forsiy izofalar.
8. Gap qolipidagi "vaqt" konseptli birliklar.
  - 8.1. "Vaqt" konseptli takror va juft so'zlar.
  - 8.2. "Vaqt" konseptli yordamchi so'zlar.
  - 8.3. "Vaqt" konseptli deytik vositalar.

## 8.4. “Vaqt” konseptli grammatik shakllar.

Eski turkiy til davridagi “vaqt” konseptli birliklar, asosan, sodda soʻz koʻrinishida uchraydi. Ularning aksariyatini tub soʻzlar tashkil etadi.

Eski turkiy til davrida vaqt konseptini ifodalovchi leksik vositalar shu davrda yaratilgan yozma manbalarda oʻz ifodasini topgan.

Eski turkiy til manbalaridagi “vaqt” konseptini ifodalovchi birliklarning aksariyatini oʻz qatlam soʻzlari tashkil qiladi. Turkiy xalqlar muddat, vaqt tushunchasi eng qadimgi davrlardan boshlab ajratganlar va tushunchani nomlovchi alohida **öd** leksemasini qoʻllaganlar:

**Öd** (turkiy) vaqt, zamon, davr: öd kechar – zamon oʻtar. Bu leksema turli semantik qiymatdagi “vaqt” semalarini ifodalaydi. Hozirgi “vaqt-soat” maʼnosiga teng keladigan tushunchani aks ettirgan: Ajitliq turur bu ölüm belgölüg, ödi kelmäginča er ölmäz külüg – Shubhasiz, bu oʻlim muhaqqaqdir, (ammo) vaqti-soati yetmaguncha mard bahodirlar oʻlmaydilar (QBK 121<sub>15</sub>).<sup>1</sup> Xalq dunyoqarashida “vaqt-soat” tushunchasi mavjud boʻlib, Olloh tomonidan berilgan umrning soʻnggi nuqtasini, yashash vaqtining tugashini anglatadi.

**Öd** “belgilangan muddat” tushunchasini ifodalagan: Jil aj öd bitisä küni belgölüg, azirtliq açuqluy sanı belgölüg<sup>2</sup> – Yil, oy, kun vaqtini yozib qoʻysa, kuni maʼlum boʻladi, aniq va ochiq hisobi maʼlum boʻladi (QBK 156<sub>2</sub>).<sup>3</sup>

**Öd** “maʼlum bir muddat” maʼnosini anglatgan: Bu ödtä azun öz özigä baqıp kevänip sevünip ediñä baqıp – Ayni damda dunyo oʻziga boqib, oʻzining boyliklaridan quvonib, sevinib oʻtiribdi (QBH 14<sub>15</sub>)<sup>4</sup>;

**üdün:** Zamon, vaqt, muddat. DLT da vosita kelishigi bilan kelgan holati uchraydi. Oʻzaro yasaliş asos va yasalma munosabatidagi leksemalar üd va üdündir: Eski uygʻur bitiklarida “vaqt, muddat” maʼnolarini anglatgan. Bu eng keng tarqalgan tushunchalardan biri boʻlgan. Leksema odatda alohida ishlatilishiga qaramay, olmosh va kelishik qoʻshimchalari bilan birgalikda qoʻllanilgan. Bu leksema DLT [79-bet; 1-jild; 1960]da quyidagicha: DLT da vosita kelishigi bilan kelgan holati uchraydi; “od”ning bir shakli sifatida. öñrä ärtmiş üddä bu çambudivip uluşta m(a)harate atl(ı)g elig han bar ärti (AP 59-61) “Avvallari (bundan oldingi vaqtda) ushbu Kambudivip mamlakati – Maharate otliq bir hukmdor bor edi”;

Turkiy tillarda ür “uzoq vaqt, muddat”; ür: “uzoq vaqt, davr” maʼnosidagi tub leksema qoʻllangan; üdün bilan sinonim sifatida qoʻllash mumkin. DLT da bu shakl uchramaydi: inçip

<sup>1</sup> Dadaboyev H. Xolmuradova M. “Qutadgʻu bilig”dagi soʻzlarning oʻzbekcha, ruscha va inglizcha izohli lugʻati.- Toshkent:Navroʻz, 2018. –B.243.

<sup>2</sup> Dissertatsiyada Dadaboyev H. Xolmuradova M. “Qutadgʻu bilig”dagi soʻzlarning oʻzbekcha, ruscha va inglizcha izohli lugʻati” (Toshkent: Navroʻz, 2018) da keltirilgan lotin alifbosidagi xalqaro transkripsiyadan foydalanildi.

<sup>3</sup> Dadaboyev H. Xolmuradova M. Koʻrsatilgan lugʻat. –B.50.

<sup>4</sup> Dadaboyev H. Xolmuradova M. “Qutadgʻu bilig”dagi soʻzlarning oʻzbekcha, ruscha va inglizcha izohli lugʻati. – Toshkent: Navroʻz, 2018. –B 98.

olarniڭ arasında agladı ٲakı m(a)has(a)tve tegin ol barsniڭ açın torukın ämgäkin tolgakın tetrü körüp tägrä tägzinip közin idi andıran ketäru umatın ür keç tetrü körü turup ötru kodup öni yorıp bardılar (AP177-182) – “Shunday qilib, u ular orasida yig‘lab yubordi. Shahzoda Maxasatve bularning ochligini, uning zaifligi va qiynoqlarini aniq ko‘rib, uning atrofida yurib, u hech undan yuz o‘girmasdan, uzoq vaqt ajratmasdan ehtiyotkorlik bilan qarab yurdi”.

Vaqt semali sodda yasama leksemalar: Har qanday tilning taraqqiyoti bilan bir qatorda uning sofligi, milliyligi va estetik xususiyatlarini saqlab qolish imkoniyatini beruvchi manbai bu – o‘sha tilning ichki manbaidir.

Ödläk (turkiy) so‘zi “taqdir” ma‘nosida kelgan: Bu ödläk oqi birlä köni baliy – Bu taqdir o‘qidan ko‘ngli yarimta / [tot] u kogo dusha ranena strelami sudby (QBk 324<sub>4</sub>)<sup>5</sup>.

Ödläk “vaqt” ma‘nosini anglatgan: Müsafir bolup mindi ödläk ati – Musofir bo‘lib vaqt otini mindi (QBN 65<sub>9</sub>).<sup>6</sup>

“Vaqtни tanlamoq”, “vaqtни belgilamoq” tushunchasi **ödlä**= so‘zi bilan ifodalangan: Qali elig ödläp tiläsä seni, joriq tüz tapuy qil basınma anı –Agar hukmdor vaqt belgilab seni chaqirsa, to‘g‘ri xizmat qil, e‘tiborsizlik qilma (QBN, 1482).<sup>7</sup>

Ödsüz (turkiy) bevaqt, vaqtsiz, vaqt- soati yetmasdan. Kişi ödsüz ölmäs anadın tuyub – Kishi onadan tug‘ilib bemahal o‘lmaydi (QBN, 2252).<sup>8</sup>

Öñrä: öñrä ärtmiş üddä bu çambudivip uluşta m(a)harate atl(ı)g elig han bar ärti (AP 59-61) “Avvallari (bundan oldingi vaqtda) ushbu Kambudivip mamlakati – Maharateda bir hukmdor bor edi”. Üdün/ür: uzoq vaqt, davr. bilan sinonim sifatida qo‘llangan. DLT da bu shakl uchramaydi. inçip olarniڭ arasında agladı ٲakı m(a)has(a)tve tegin ol barsniڭ açın torukın ämgäkin tolgakın tetrü körüp tägrä tägzinip közin idi andıran ketäru umatın ür keç tetrü körü turup ötru kodup öni yorıp bardılar (AP177-182) – “Shunday qilib, u ular orasida yig‘lab yubordi. Shahzoda Maxasatve bularning ochligini, uning zaifligi va qiynoqlarini aniq ko‘rib, uning atrofida yurib, yuz o‘girmasdan, uzoq vaqt ajratmasdan ehtiyotkorlik bilan qarab yurdi. b) vaqt semali sodda yasama leksemalar: Har qanday tilning taraqqiyoti bilan bir qatorda uning sofligi, milliyligi va estetik xususiyatlarini saqlab qolish imkoniyatini beruvchi manbai bu – o‘sha tilning ichki manbaidir. DLT [79-bet; 1-jild;1960]da quyidagicha:

“Vaqt” konseptini umumlashtirib ifodalaydigan leksemalar ham mavjud. Ogur “vaqt, muddat” ma‘nosini ham anglatadi. Bu leksema DLT [35-bet; 2017] da quyidagicha ifodalangan: 1) ogur

<sup>5</sup> Dadaboyev H. Xolmuradova M. Ko‘rsatilgan lug‘at. –B.59.

<sup>6</sup> Dadaboyev H. Xolmuradova M. “Qutadg‘u bilig”dagi so‘zlarning o‘zbekcha, ruscha va inglizcha izohli lug‘ati.- Toshkent: Navro‘z, 2018. –B. 229.

<sup>7</sup> Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф қилувчи Қ.Каримов.– Тошкент, 1972. –Б. 270.

<sup>8</sup> Юсуф Хос Ҳожиб. Кўрсатилган манба. –Б. 376.

– omad, imkon, davlat. 2) ogur –vaqt; ne ogurda kelding – qay vaqt kelding. bir ugurta ol elig han üç oglanı birlä taştın tagta arıgta ilinçükä bartı (AP79-81) shu fursatda o‘sha hukmdor uchta o‘g‘li bilan ko‘ngil ochish uchun tog‘ga, o‘rmonga chiqdi.

Qadimgi turkiy va eski turkiy tilga xos “vaqt” konseptli leksemalar ayrim turkiy tillarda va o‘zbek xalq shevalarida saqlanib qolgan. Xalq shevalaridagi vaqt va o‘lchov birliklarini yig‘ish va saqlab qolish o‘zbek tili imkoniyatlarini namoyon qilishda ahamiyatlidir.

## FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Dadaboyev H. Xolmuradova M. “Qutadg‘u bilig”dagi so‘zlarning o‘zbekcha, ruscha va inglizcha izohli lug‘ati. –Toshkent: Navro‘z, 2018. –B 98.
2. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф қилувчи Қ.Каримов.–Тошкент, 1972. –Б. 270.
3. Юсуф Хос Ҳожиб. Кўрсатилган манба. –Б. 376.
4. Mirtojiyev, M.M. O‘zbek tili semasiologiyasi / M.M.Mirtojiyev; mas’ul muharir A.P.Hojiyev. - T.: MPMT, 2010.
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilida fe‘l frazemalarning bog‘lashuvi. – Toshkent: Universitet, 1992.
6. Hakimov Q. O‘zbek tilidagi sodda gap qolipli frazeologizmlarning zaruriy birikuvchanligi. Filol. fan. nom. diss. avtoref. – Toshkent, 1994.
7. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Hozirgi o‘zbek tiliga V.Rahmonov va K.Mullaxo‘jayevalar tabdil qilishgan. – Toshkent, 2008. – B.52-72.